


TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2023- YIL YANVAR-DEKABR OYLARIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR






2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 44 449,2 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ulardan korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 24,5 % yoki 10 890 mlrd. so'm moliyalashtirildi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2023- yildagi ulushiga nisbatan 10,3 % ni yoki 4 577,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 39 871,9 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 89,7 % ni tashkil etdi.



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd.so'm




2023- yilning yanvar-dekabr oylarida korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 10 889,6 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 25,4 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 9,0 % i yoki 3 982,2 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 6080,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 135,5 % ni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi mlrd.soʻmda	2022- yil yanvar-dekabrga nisbatan %da	Ulushi % da
Toshkent viloyati	44 449,2	112,8	100
Nurafshon sh	1 667,7	106,2	3,8
Olmaliq sh	14 347,4	137,9	32,3
Angren sh	1 584,0	136,1	3,6
Bekobod sh	3 603,3	91,3	8,1
Ohangaron sh	829,8	89,6	1,9
Chirchiq sh	2 464,6	94,8	5,5
Yangiyoʻl sh	406,8	102,9	0,9
Oqqoʻrgʻon t	315,7	128,6	0,8
Ohangaron t	3 439,0	138,6	7,7
Bekobod t	498,4	101,8	1,1
Boʻstonliq t	1 420,5	86,5	3,2
Boʻka t	481,7	111,2	1,1
Quyichirchiq t	1 966,3	95,8	4,4
Zangiota t	2 334,0	103,0	5,3
Yuqori Chirchiq t	1 880,7	191,0	4,2
Qibray t	2 377,9	66,7	5,3
Parkent t	398,4	91,8	0,9
Piskent t	541,0	103,9	1,2
Oʻrta Chirchiq t	1 155,9	137,8	2,6
Chinoz t	428,8	96,4	1,0
Yangiyoʻl t	1 397,6	153,2	3,1
Toshkent t	909,7	83,5	2,0

Qurilish-montaj ishlari



Mashina, uskuna, inventar

Boshqa xarajatlar

Toshkent viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlari bo'yicha 21 470,3 mlrd.so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 48,3%, mashina, uskuna va inventarlarga 19 604,9 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 44,1 % ini tashkil etdi, va boshqa xarajatlarga 3 374,0 mlrd. so'm ya'ni 7,6 %i o'zlashtirildi.

74,9 %

Yangi qurilish

15,3 %

Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya


9,8 %

Boshqa yo'nalishlar


Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Oqqo'rg'on tumanida kuzatildi – 88,2 % yoki 278,5 mlrd. so'm.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Angren shaharida kuzatilib, 19,1 % ni yoki 302,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ohangaron shahrida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich – 78,9 % yoki 654,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Hududlar bo'yicha kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya uchun investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Hududlar bo'yicha boshqa yo'nalishlarda o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Hududlar bo'yicha mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da



HUDUDLAR BO'YICHA QURILISH-MONTAJ ISHLARIGA INVESTITSİYALAR ULUSHI, JAMI INVESTITSİYALARGA NISBATAN, % DA



Hududlar bo'yicha boshqa xarajatlar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida tog'-kon sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish

manbalari hisobidan 13 786,4 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 31,0 % i o'zlashtirilgan.

Qayta ishlash sanoati tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:


METALL RUDALARINI QAZIB OLISH
13 638,1 mlrd. so'm
Ulushi 30,7%

METALLURGIYA SANOATI
4 113,2 mlrd. so'm
ulushi 9,3%

BOSHQA NOMETALL MINERAL MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH
2 582,4 mlrd. so'm
ulushi 5,8%

Tog'-kon sanoatida jami asosiy kapitalga investitsiyaning 30,7 % i yoki 13 638,1 mlrd. so'mi metall rudalarini qazib olish sohasiga tegishlidir.

Toshkent viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan % da



Hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

mlrd. so'm

	Jami	To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar
Toshkent viloyati	25269,7	6 080,4	1 756,9	17 432,3
Nurafshon sh	576,9	221,2	58,0	297,6
Olmalik sh	10 942,6	82,3	3,2	10 857,2
Angren sh	1 106,3	657,9	0,0	448,4
Bekobod sh	2 079,4	179,1	0,0	1 900,3
Ohangaron sh	315,5	217,0	0,0	98,6
Chirchiq sh	1 127,2	571,0	170,3	385,8
Yangiyo'l sh	161,8	51,0	55,9	54,9
Oqqo'rg'on t	187,8		0,0	187,8
Ohangaron t	1 790,1	1 790,1	0,0	0,0
Bekobod t			0,0	0,0
Bo'stonliq t	446,1	85,7	269,2	91,2
Bo'ka t	268,8	97,6	0,0	171,2
Quyichirchiq t	1 199,3	228,6	247,2	723,6
Zangiota t	1 200,3	321,1	307,9	571,2
Yuqori Chirchiq t	1 129,4	968,0	0,0	161,4
Qibray t	747,6	90,3	294,8	362,5
Parkent t	3,3	3,3	0,0	0,0
Piskent t	160,3	17,5	0,0	142,8
O'rta Chirchiq t	549,1	102,4	0,0	446,7
Chinoz t	165,9	26,8	0,0	139,1
Yangiyo'l t	930,3	312,7	350,4	267,1
Toshkent t	181,7	56,8	0,0	124,9

2023- yil yanvar-dekabr oylarida 25269,7 mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 56,9 % ini xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o'zlashtirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 6080,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va qolgan 19188,9 mlrd. so'm xorijiy kreditlar hisobiga to'g'ri keldi.

E'TIBORINGIZ UCHUN RAXMAT!

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: **(71) 202-86-70,**